

SHUHRAT MATKARIMNING “BOLJON” VA “OG‘RIQ” HIKOYALARIDA DIALEKTOLIZMLAR TAHLILI

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna,
Urganch davlat universiteti filologiya fanlari doktori

Yuldasheva Komila Umarali qizi,
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Lingvistik (o‘zbek tili) 1-kurs magistranti
Email: yuldashevak@530 gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shuhrat Matkarim ijodidagi dialektizmlarni keng qamrovli jihatdan o‘rganish asosiy o‘rganish obyekti sifatida belgilab olindi. Shuhrat Matkarim badiiy asarlari tilida qo‘llanilgan shevaga oid so‘zlar tahlil qilindi. Dialektizmning adabiy til va badiiy asardagi o‘rni haqida mulohazalar yuritildi.

Kalit so‘zlar: dialektologiya, grammatik dialektizm, fonetik dialektizm, lahja, sheva.

Аннотация. В данной статье в качестве основного объекта исследования определено всестороннее изучение диалектизмов в творчестве Шухрата Маткарима. Проводится анализ диалектных слов, использованных в языке художественных произведений автора. Также рассматриваются роль и значение диалектизмов в литературном языке и художественном тексте.

Ключевые слова: диалектология, грамматический диалектизм, фонетический диалектизм, наречие, говор.

Abstract. This article focuses on a comprehensive study of dialectisms in the works of Shuhrat Matkarim as the primary object of research. Dialect words utilized in the artistic language of Shuhrat Matkarim's literary works are thoroughly analyzed. Furthermore, the role and significance of dialectisms in both the literary language and fiction are discussed.

Key words: dialectology, grammatical dialectism, phonetic dialectism, dialect, sub-dialect.

Kirish. Shuhrat Matkarim kunimizda Xorazm shevasini asarlari orqali mintaqamizning har bir hududi insonlariga anglashli qilayotgan jonkuyar adiblarimizdan biridir. Uning “Kun shunday boshlanadi”, “Boljon” singari hikoyalar to‘plamlarida, qator respublika jurnal va gazetalarida chop qilinayotgan asarlarida ham Xorazm shevasiga oid minglab so‘zlarning o‘rni-o‘rnida, kitobxon o‘quvchiga erish tuyulmaydigan, tushunarli va leksik farq qiluvchi so‘zlarning izohlari bilan alohida berib o‘tilgan holda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Shuhrat Matkarim boshqa yozuvchilardan aynan shu jihati, ya’ni o‘z asarlarida qo‘rqmasdan sheva so‘zlaridan o‘rinli foydalana olishligi bilan ajralib turadi. Adib asarlarini o‘qigan kitobxon faqat shu lahja vakili bo‘lmasligini inobatga olib asardagi har bir shevaga oid so‘zlarni tushunib o‘qishiga zamin yaratgan.

Adabiyotlar tahlili. Dialekt yunoncha so‘z bo‘lib, sheva, so‘zlashish degan ma’nolarni bildiradi va aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi.[1] Tilshunoslikka oid ko‘plab adabiyotlarda esa dialekt ko‘pincha lahja ma’nosida, ba’zan esa sheva ma’nosida ham qo‘llaniladi. Olimlar tomonidan yaratilgan dialektologiyaga oid ilmiy ishlarda sheva, dialekt va lahja atamalarini farqlamaslik, aralashtirib qo‘llash hollari ham uchraydi.[2] Yozuvchining “Boljon” va “Og‘riq”

hikoyalarda ham boshqa hikoyalarda bo'lgani kabi fonetik, leksik, grammatik dialektizmlar qo'llanilgan. Hasanxon Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida fonetik dialektizmlar dialektga xos nutq tovushlari yoxud so'zning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi ekanligini, grammatik dialektizmni esa biror tilning o'zigagina xos ya'ni adabiy tildagidan farq qiluvchi grammatik shakllari ekanlini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Shuhrat Matkarimning "Boljon" va "Og'riq" hikoyalardagi dialektizmlar tahlilga tortiladi. Shevaga oid bo'lgan so'zlarning qaysi lahjaga oidligi hamda qaysi jihatlari bilan adabiy tildan farq qilishligi tasviriy va qiyosiy medotlar orqali ochiqilanadi. Hikoyalardagi grammatik dialektizmlar ma'nolari adabiy tildagi variantlari bilan solishtiriladi.

Tahlillar va natijalar. Shevalar har bir tilning asosini tashkil qiladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz hisoblanib har bir xalqning tarixini va o'zligini ko'rsatadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "...o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish zarur" ligi haqidagi fikrlari e'tiborlidir.[3]

Yozuvchi "Og'riq" hikoyasida shevaga oid so'zlardan unimli foylangan. Xususan, hikoyada grammatik dialektizmlar faol qo'llanilgan. Masalan, hikoya qahramonining og'riqqa chiday olmayotgan paytdagi holatini adib "tungi shog'olday cho'zib-cho'zib uvlagan chog'lari ham bo'lgan" deya ta'riflaydi. Bu jumladagi shog'ol so'zi adabiy tilimizda chiyabo'ri demakdir. Yana tana a'zosiga nisbatan qo'llaniladigan "micha", non urvog'iga nisbatan esa "ushoq", asabiylashmoqqa nisbatan "qisinmoq", tovon so'zi o'rniga o'g'uz, qipchoq lahjalarida faol qo'llaniladigan "o'kcha" kabi ko'plab so'zlardan foylanadi. Xorazm shevasiga xos bo'lgan ajoyib o'xshatishlarni ham aynan shu hikoyada ko'rishimiz mumkin. "Tolvonglab yurishi" – oyoqlarini har tomonga tashlab yurishi, "qoraparang" – qorachadan kelgan, "qamozoqday" – cho'lda o'sadigan butasimon, tikonli o'simlik kabi yengil bo'lishini, "suxanak" – kirishuvchan, "bir mini yo'q" – hech qanday kamchiligi yo'q singari o'xshatishlar yuqoridagi gapimiz isbotidir. Yozuvchi har bir so'z va o'xshatishlarga alohida e'tibor bergan. Aynan adabiy tilda emas balki qipchoq va o'g'uz lahjasidagi so'z va iboralardan foyladalishi ham asar qahramonining Xorazm vakili ekanligini kitobxonga yaqqol ko'rsatib beradi. Ayniqsa, bu jihat qahramonlar tilidan berilgan dialoglarda sezilib turadi. Shuhrat Matkarim hikoyalari qahramonlari dialoglarida asosan fonetik dialektizmlarni ko'p qo'llaydi. "Ne uchun qo'pollik qildingizlar vakilga?" jumlasidagi ne uchun so'zi nima uchun so'roq olmoshi ifodalaydi. "Boljon" hikoyasida ham yuqorida aytgan fonetik dialektizmlar ancha o'rinlarda qo'llanilgan. Misoli uchun, "nevchun" – nima uchun, "teyinda" – tagida, "bu na gap" – bu nima degan gap kabi qahramonlar o'rtasidagi suhbatlarda dialektizmning ham grammatik, ham fonetik turlarini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi nima so'roq olmoshi o'rniga ko'p hollarda "ne, na" kabi Xorazm shevasiga oid so'zlarni qo'llaydi. "Boljon" hikoyasida yana "aytishmoq" – gap talashmoq, "suldar" – jismi, "olvirab" – dovdirab, "chingirik" – jo'xori poyasi, "og'a" –

aka, “haz etmoq” – maza qilmoq singari dialektizmlar qo‘llanilgan. O‘g‘uz va qipchoq lahjalarida birdek qo‘llaniladigan “joni yonmoq”, “kabza”, “hovvo”, “chiqon” kabi so‘z va birliklarni ham shu hikoyada uchratamiz. Joni yonmoq birligi asabiylashmoq ma‘nosini, hovvo tasdiq ma‘nosini, kabza yelkaning pastrog‘ini, chiqon esa dugona ma‘nolarini ifodalaydi. Otaga nisbatan esa “aka” so‘zi qo‘llanadi. Xorazm hududining ba‘zi joylarida otalarini aka deyish tabiiy holder va shu jihatdan dialektizmlardan unumli foydalanganlik hikoyadagi makon va zamon kaloritining yuqori bo‘lishini ta‘minlagan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchining ijodida qo‘llanilgan shevaga xos so‘zlar adib asarlarining xalqchil bo‘lishiga ham xizmat qiladi. Shevalar asarga o‘zgacha samimiy ruh bag‘sh etishi bilan birga asar voqealari qayerda aks etib turganini ham ko‘rsatib beradi. Shuhrat Matkarim Xorazm shevasining posponi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ijodkorning asarlari orqali shevamizga oid so‘zlar abadiyatga muhrlanmoqda. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, badiiy asar yaratishda dialektizmlardan foydalanishning o‘z o‘rni bor va yozuvchi mana shu qoliplarni buzmasdan asar tilini o‘qishli holda sheva so‘zlari bilan boyitib, ayniqsa grammatik dialektizmlarni asarlariga singdirib yuborgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016. – 7 b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – 199-200 b.
3. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. “O‘zbekiston ovozi”, 2019.
4. Shuhrat M. Boljon. – Toshkent, 2024.
5. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh., O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1962.
6. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z. – Toshkent: Akademnashr, 1983, – 18 b.